

**1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi.**

1. Imloviy jihatdan **to‘g‘ri** yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.
 - A) mazxaraboz, ibratomuz, komissiya
 - B) deklaratsiya, kristal, manopoliya
 - C) mash’ala, immunitet, qumursqa
 - D) chaqaloq, mutanosib, tatqiqot
2. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidagi **Abdurahmon** obraziga **to‘g‘ri** ta’rif berilgan javobni aniqlang.
 - A) *Mehr-muhabbat bilan bog‘langan qalblarni ajratish uchun fitna qilgan inson hisoblanadi.*
 - B) *Nizolar tufayli kurashayotgan tomonlarga ikki xil sadoqat ko‘rsatib, ularning ishonchiga kirgan inson hisoblanadi.*
 - C) *Xonga bo‘lgan sadoqati tufayli yuz berayotgan qabih voqealarga ko‘z yuma olmagan inson hisoblanadi.*
 - D) *Boylikka bo‘lgan muhabbati tufayli insoniyligini yo‘qotib, qizini birovning qo‘liga tutishga hozir inson hisoblanadi.*
3. Qaysi javobdagi gapda **ergashgan qo‘shma gap** berilgan?
 - A) *Ojiz yiqilganlar dilini shod qil, Ojizlik kunlarini o‘zing ham yod qil.*
 - B) *Birlashsa chumoli ittifoq bo‘lib, Arslon terisini oladi shilib.*
 - C) *Yo‘qotgay yo‘lin taqlid etgan kishi, Bilib yurgan odamning o‘ngdir ishi.*
 - D) *Zanglagan temirni ming ishlov berib, Ko‘zguday sayqallab, boqib bo‘lmaydi.*

4. Qaysi javobdagi gapda **yurmoq** fe’li “**qatnamoq**” ma’nosida qo‘llangan?
 - A) *Poyezd bir necha soat yo‘l yurgandan keyin bekatchalardan biriga kelib to‘xtadi.*
 - B) *“Jamoa sizning bu yoqlarda yurganingizni hali bilmaydi”, – dedi Sharofat.*
 - C) *Bu voqeani eshitganidan beri uning qabrini ziyorat qilish niyatida yurgandi.*
 - D) *Anchadan beri markazdan qishlog‘imiz chetiga qadar avtobus yuradi.*
5. Quyida berilgan **mazmun** qaysi asarning **bosh g‘oyasini** aks ettirgan?

Hikoyada insoniy g‘ururdan mahrum etilgan, nafsigi qul kishilar hamda ezgu tuyg‘ular sohibi bo‘lgan odam o‘rtasidagi ziddiyat ifodalanadi. Asarda ezgulik va manfaatparastlik, insoniylik va e’tiqodsizlik to‘qnashuvlar turli xarakterlar misolida ko‘rsatiladi.

 - A) “Chinor” romani (Asqad Muxtor)
 - B) “Mehrobdan chayon” romani (Abdulla Qodiriy)
 - C) “Shubxa” hikoyasi (Robindranat Thakur)
 - D) “Ufq” trilogiyasi (Said Ahmad)
6. Quyidagi qaysi javobda alohida ajratib ko‘rsatilgan so‘zning ma’nosи **sinekdoxa** usulida ko‘chgan?
 - A) *Shirin so‘zli shilgay g‘anim po‘stini, Dag‘al so‘zli dushman qilur do‘stini.*
 - B) *Maktabning ilk qaldirg‘ochlari endi bu maktabda o‘n bir yil o‘qiydi.*
 - C) *Bu ulkan dengizning o‘rtasida sekin-asta yelkanlar ko‘rina boshladи.*
 - D) *Shirin so‘zni o‘rgan mudom Sa’diydan, Dag‘al so‘zli odam o‘tar g‘am bilan.*



7. Fitratning "**Abulfayzxon**" dramasidagi **Rahimbiy** obrazi haqida berilgan **to‘g‘ri** hukmni aniqlang.
- A) Xonlik in'om etilishidan umidvor bo‘lib Nodir shoh bilan til biriktiradi.
B) Qizini xonga turmushga bermagani uchun qatl qilinadi.
C) Xonning el-yurtga qilgan haqsizligidan norozi bo‘lib unga qarshi urush qiladi.
D) Chingizzon avlodidan bo‘limgani bois bir muddat taxtga egalik qila olmaydi.
8. Quyida berilgan **ikkinci va uchinchi** gapni bog‘lovchi **vositani** aniqlang.
1. Daraxt bir joydan ko‘chmasa edi.
 2. Arra jabrini tortar edi.
 3. Bolta jafosini ko‘rar edi.
- A) bo‘lsa, esa B) na...na
C) yo...yo D) hamda
9. Qaysi javobdagi gapda qo‘srimcha qo‘llash bilan bog‘liq **uslubiy xatolik** mavjud?
- A) U jozibali nutq so‘zlamoqchi bo‘ldi:
“Ey hamqishloqdoshlarim, sizlar Vatan ravnaqi uchun, oq oltin terimiga chiqishingiz lozim”.
- B) Ona qachonlardir, nasib qilsa, bu saxiy, odamgarchilikni biladigan muruvvatli kishiga bir yaxshilik qilishni o‘yladi.
- C) Nazm gulshanining purma’no hikmat sohiblarini istiqlol mushoirasiga chorlashga harakat qilamiz.
- D) O‘jar insonni urmay-so‘kmay o‘zi uchun manfaatli yo‘lga solish haqidagi fikrlar behikmat emas ekan-da.
10. Quyidagi qaysi javobda "ichidagi istak yoki dardini aytmoq" hamda "xafachiligini tarqatmoq, xursand qilmoq" mazmunini anglatuvchi **shakldoshlik** xususiyatiga ega **ibora** berilgan?
- A) ko‘nglini yordi B) ko‘nglini ochdi
C) ko‘nglini ovлади D) ko‘nglini uzdi


2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi.

11. “**Alpomish**” dostonidan olingan quyidagi parchada ifodalangan mazmunni aniqlang.
Qorajon bilan Alpomish yoydi qulochdi, ikkovi xulqi muhabbat bilan ko‘rishdi. “Qalaysan, do‘stim, omonganmi?” – deb siqinqirab yubordi. Qorajonning yetti qobirg‘asi sindi, ishi tindi, tappa tushib yetib qoldi. Alpomish aytdi: “Nima qildi, do‘stim?” Qorajon: “Bola kunda tutadigan quyonchiq kasalim bor edi. Shul vaqt tutib qoldi”, – dedi.
- A) Alpomish va Qorajonda o‘rtasidagi yashirin adovat tasvirlangan.
B) Qorajonning noqulay vaziyatdan ustalik bilan chiqishi bayon etilgan.
C) Qorajon atayin o‘zini Alpomishdan kuchsiz ko‘rsatishi ifodalangan.
D) Ikki bahodirning do‘stlik aloqalari mustahkam ekani bayon etilgan.
12. Quyidagi gapda qatnashgan qaysi so‘z hokim qismiga **kelishik va ko‘makchilarsiz** bog‘langan?
Maktablarda olib borilayotgan tarbiyaviy tadbirlar o‘quvchilarni nafaqat bilim olishga, balki ma’naviyatli va odobli bo‘lishga yo‘naltirib, ularning jamiyatda faol shaxs sifatida shakllanishida katta ahamiyatga ega.
- A) olib borilayotgan B) bilim
C) shakllanishida D) shaxs




13. O‘zaro **ma’nodoshlik** hosil qila oladigan so‘zlarni aniqlang.


A)




B)



C)



D)



14. Quyidagi gapda qanday **sintaksis birliklar** ishtirok etgan?

Gap ko‘p – ko‘mir oz. Bu iborada men chuqur ma’no, tagdor fikr ko‘rmadim. Bu gapda ne badiiyat, ne hikmat bor? O‘ylashimcha, bu ibora aslida "Gap ko‘p-ku – umr oz" bo‘lgan.

- A) ajratilgan bo‘lak va to‘liqsiz gap
- B) uyushiq bo‘lak va kiritma
- C) kiritma va ritorik so‘roq gap
- D) uyushiq bo‘lak va so‘z-gap

15. Tog‘ay Murodning “**Yulduzlar mangu yonadi**” qissasidan olingan parchada alohida ajratib ko‘rsatilgan jumla orqali qanday **mazmun** ifodalangan?

Ishonchim komilki, nevaram bobosining orini oladi! Sen ko‘rmayapsan, oshna, oy botib, yulduzlar so‘nib-so‘nib boryapti.

O‘g‘lim o‘ktamligida yulduzlar yongani-yongan bo‘ladi. O‘g‘lim mag‘lubligida yulduzlar so‘ngani-so‘ngan bo‘ladi. Yo‘q, oshna, yo‘q! Yulduzim hali yonadi! Davralarim hali davom etadi! Nevaralarim davralarda:
– Yo, bobomning piri, deb olisha beradi! Yulduzim mangu yonadi!

A) Bo‘ri polvon o‘z farzandidan o‘kinishi bayon etilgan.

B) O‘glining mag‘lubiyatini tan olmayotgan otaning iztirobi bayon etilgan.

C) O‘g‘ilning zafar yoki mag‘lubiyati otaning yutuq yoki mag‘lubiyati ekani ta‘kidlangan.

D) Umidi so‘ngan otaning maqsadidan voch kechishi tasvirlangan.

16. Quyidagi gapda qatnashgan **ravishlar** haqidagi **to‘g‘ri** hukmni aniqlang.

Onda-sonda o‘sigan daraxtlar sahroning shamolida asta tebranib turibdi, toshday tipratikon birdaniga yo‘limizdan chiqib qoldi.

A) Ravishning tuzilishiga ko‘ra faqat bir turi ishtirok etgan.

B) Holat va o‘rin ravishlari ishtirok etgan.

C) Yasama so‘z bilan ifodalangan payt ravishi ishtirok etgan.

D) Aniqlovchi va hol vazifasida qo‘llangan ravishlar ishtirok etgan.



17. Quyidagi gapda **tire** tinish belgisining foydalanish sababi **noto‘g‘ri** ko‘rsatilgan javobni aniqlang.

“Siyosat – buyuk imkoniyatlar san’ati”, “Siyosatni bilding – dunyoni bilding”, – deb buyuk siyosatchilar bekorga aytmagan. Hamid Sodiq tomonidan ommaga taqdim etilayogan durdona – “Vatandoshlik dasturi” esa millatni siyosat olamiga olib kiradi.

- A) Ega va bog‘lamasiz ot kesim o‘rtasida tire tinish belgisining qo‘llanishi kuzatilgan.
- B) Umumlashtiruvchi so‘zni uyushiq bo‘laklardan ajratish maqsadida qo‘llangan.
- C) Ajratilgan bo‘lakni hosil qilish uchun tire tinish belgisi qo‘llanishi kuzatilgan.
- D) Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida tire tinish belgisining qo‘llanishi kuzatilgan.

18. Oybekning “**Fonarchi ota**” hikoyasi haqida **to‘g‘ri** ma’lumot berilgan javobni aniqlang.

- A) O‘z kasbiga sadoqat bilan xizmat qilayotgan insonning yangi avlod insonlari bilan to‘qnashishi tasvirlangan.
- B) Bolalarning beg‘uborligi, istaklari, ular o‘z xohishlari yo‘lida kattalarni ham o‘z yo‘liga boshlashi tasvirlangan.
- C) Insonlarga manfaat yetkazayotgan kishilarning odamlar tomonidan yakkalab qo‘yilishi tasvirlangan.
- D) O‘z rizqini terib yurgan kishilarning oilaviy nizo tufayli hayoti murakkab tusga kirishi tasvirlangan.

19. Alisher Navoiyning quyidagi ruboysi haqida **to‘g‘ri** ma’lumot berilgan javobni aniqlang.

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish, El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish. Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa, Bulbulg‘a tikondek oshyon bo‘lmas emish.

- A) Tamsil vositasida hashamatli makonlar ham asl Vatan bo‘la olmasligi ta’kidlangan.
- B) Inson o‘z Vatanining qadrini bilish uchun sayohat qilishi kerakligi ta’kidlangan.
- C) O‘z Vatanini sevish uchun insonlarga mehribon bo‘lish kerakligi ta’kidlangan.
- D) Qiyinchiliklarga duch kelmagan inson Vatan qadrini bilmasligi ta’kidlangan.

20. Anton Chexov qalamiga mansub "Garov" hikoyasida ilgari surilgan **asosiy g‘oya to‘g‘ri berilgan** javobni aniqlang.

- A) Inson hayot ekan, hamisha unda o‘zlikni anglashga, kamolot sari intilishga imkon topadi.
- B) Hayotning asl qiymatini tashkil etadigan mablag‘ dunyoda insonning qudratli bo‘lishini ta’minlaydi.
- C) Hayot haqiqatlarini anglash uchun inson juda ko‘p mashaqqatlarni boshdan kechirishi kerak.
- D) Inson umrining oxirigacha dunyo noz-u ne’mati bilan yashaydi, undan o‘zini ihota qila olmaydi.



3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi.

21. Quyidagi gapda qatnashgan **qo'shimchalar** haqida **to'g'ri** hukm berilgan javobni aniqlang.
- O'qituvchilarining sabrli va tirishqoq mehnati natijasida o'quvchilarining bilish qobiliyati oshib, ular murakkab masalalarni mustaqil hal qilishga o'rnatildi, bu esa ta'lim sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etdi.*
- A) *Barcha so'z yasovchi qo'shimchalar bir xil turkumdagi so'zlarni yasashga xizmat qilgan.*
- B) *Barcha lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar fe'llarning tarkibida qo'llangan.*
- C) *Fe'l turkumi hisoblangan asoslarga sifat va ot yasovchi qo'shimchalarining qo'llanishi kuzatilgan.*
- D) *Barcha sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar ismlarning tarkibida qo'llangan.*
22. Quyidagi gapda qatnashgan **fe'llar** haqida **xato** ma'lumot berilgan javobni aniqlang.
- Tadqiqotchilar ilmiy markazda ishtirok etishdi, o'tkazgan tadqiqotlarini taqdim qilishdi va ilmiy salohiyatlarini namoyon qila boshladilar, natijada yurtimiz olimlari xorijlik mutaxassislar bilan hamkorlikni mustahkamlashga erishdilar.*
- A) *Felning tuzilishiga ko'ra ikki turi ishtirok etgan.*
- B) *Fe'l nisbatlarining uch turi ishtirok etgan.*
- C) *Fe'lning vazifa shaklida ko'ra uch turi ishtirok etgan.*
- D) *Barcha yasama fe'llar o'timli fe'l bilan ifodalangan.*

23. Abdulla Qahhorning "**Dahshat**" hikoyasidan olingan quyidagi parcha haqida **to'g'ri** tahlil berilgan javobni aniqlang.

Har sag'anadan bir qo'l, har go'r dan bir tovush chiqishini kutib o'tin qidirish vahimasi uning yuragiga yana raxna sola boshladi. Unsin o'ziga-o'zi baland tovush bilan yana: "O'likning joni yo'q!" – dedi. Hozir diliga bitta odamchalik quvvat bo'layotgan bu gapni og'zidan qo'y may, sag'ana va go'rlarni oralab o'tin qidirdi...

A) *Unsin qanchalik jasur bo'lmasin maqsadiga yetishishiga qo'rquv xalal berardi.*

B) *Unsin qo'rqoqligi bois erk uchun kurasha olmaydi va bu o'lim bilan tugaydi.*

C) *Unsin o'z maqsadi yo'lida har qanday qo'rquvga dosh berardi.*

D) *Unsinning zulmga bo'lgan nafrati uning qo'rquvi oldida ojiz edi.*

24. Quyidagi gap haqida qaysi javobda **xato** ma'lumot berilgan?

Fermerlar bu yilgi hosilni yig'ib olish uchun qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologiyalardan foydalaniishdi, ekin maydonlarini kengaytirishga jiddiy kirishdilar.

A) *Vositasiz to'ldiruvchi vositali to'ldiruvchiga tobelangan.*

B) *Sifatlovchi aniqlovchi vositasiz to'ldiruvchiga tobelangan.*

C) *Payt holi vositasiz to'ldiruvchiga tobelangan.*

D) *Maqsad holi fe'l kesimga tobelangan.*



25. Jadval asosida asarlar va ularga mos ma'lumotlarni muvofiqlashtiring.

Asarlar	Asarlar haqida ma'lumotlar
1) "Mardlik afsonasi" balladasi (Shuhrat)	a) <i>Erki uchun kurash yo'lida halok bo'lgan ayol tasvirlanadi.</i>
2) "Oygul bilan Baxtiyor" ertak-dostoni (Hamid Olimjon)	b) <i>Erkka erishish va zulmni yengish uchun ko'tarilgan xalq kurashiga boshchilik qilgan ayol tasvirlanadi.</i>
3) "Toshbu" she'ri (Mirtemir)	c) <i>Qo'rqaqligi bois erk uchun kurasha olmagan ayol tasvirlanadi.</i> d) <i>Yovqur ayolning qonxo'r bosqinchi bilan yakkama-yakka olishuvi tasvirlanadi.</i> e) <i>O'zbek ayolining sadoqati, g'ururi, mehnatkashligi tasvirlangan.</i>

- A) 1-e 2-d 3-c B) 1-d 2-b 3-e C) 1-a 2-b 3-c D) 1-b 2-d 3-e

Quyidagi she'riy parcha asosida 26-27-test topshiriqlarini bajaring.

*Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ordim,
Ko'rub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrayi zardim.*

*Sen, ey gul, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
Ayoqingg'a tushub, bargi xazondek muncha yolbordim.*

*Xazondek qon yoshim, sorig' yuzumdin el tanaffurda,
Bahar rangi, bihamdillah, ulusdin o'zni qutqordim.*

26. Yuqoridagi parcha haqida **xato** ma'lumot berilgan javobni aniqlang.

- A) *Oshiqning yuzi xazon yaprog'iga o'xshatilgan.*
B) *Yorning rangi bahor gullari kabi tiniq ekani tasvirlangan.*
C) *Yorning chiroyli qaddi sarv daraxtiga o'xshatilgan.*
D) *Oshiqning ko'zyoshlari xazonga o'xshatiladi.*

27. Yuqoridagi parcha haqida **to'g'ri** ma'lumot berilgan javobni aniqlang.

- A) *Parchada muqayyad qofiyadan foydalanilgan.*
B) *Parchada m tovushi raviy vazifasida qo'llangan.*
C) *Parchada qisqa radifdan foydalanilishi kuzatilgan.*
D) *Parchada tanosub va istiora she'riy san'atlari aks etgan.*





Matnni o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

PANDALAR

Pandalar noyob hayvon turi hisoblanadi. Pandalar tabiatda eng ko'p kuzatiladigan xavfsizlik borasida zaif hayvonlardan biridir. *[1]Pandalar o'zining o'ziga xos ovqatlanish xususiyatlari bilan tanilgan.* Ularning oziqlanishi faqat bambuk bilan bog'liq, bu esa ularni boshqa ko'plab ayiq turlaridan farqlaydi. Pandalar kuniga 12 soat vaqtini ovqatlanishga sarflashadi, chunki bambuk o'zida juda kam protein va kaloriya saqlaydi.

[2]Pandalar yirik va og'ir hayvonlar bo'lib, o'rtacha vazni 80-125 kg atrofida bo'ladi. Ularning bo'yi 80-90 smni tashkil etadi. *[3]Pandalar kuchli oyoqlarga ega bo'lib, ularda katta panjalar mavjud.* Pandalar, shuningdek, ko'plab o'ziga xos xususiyatlarga ega, masalan, ularning quloqlari katta va bo'yni kuchli, bu esa ularga atrof-muhitni yaxshi ko'rish imkonini beradi. Ularning yashash muhitni o'rmon va tog'li hududlar hisoblanadi. *[4]Ular faqat bambuk bilan oziqlanadi.* Pandalar ko'pincha yakkalanib yashaydi, lekin ko'payish davrida bir-birlari bilan uchrashadilar.

28. Matn mazmuniga mos **to'g'ri** ma'lumot berilgan javobni aniqlang.

- A) Pandalar zaif harakatlanish xususiyatiga ega.
- B) Pandalar kunning yarmini ovqatlanish bilan o'tkazadi.
- C) Pandalarni xonakilashtirish yo'lga qo'yilgan.
- D) Pandalar asosan jamoaviy tarzda hayot kechiradi.

29. Qaysi raqamda ajratib ko'rsatilgan gap **fikr takrori** orqali matnning mazmuniy tuzilishida uslubiy **xatolikni** yuzaga chiqargan?

- A) 1
- B) 2
- C) 3
- D) 4

30. Matnda **aks etgan** ma'lumotni aniqlang.

- A) Pandalarda ko'rish qobiliyati yaxshi rivojlangan.
- B) Pandalarning bo'yi bir metrga yaqin bo'ladi.
- C) Pandalarda ko'payish davri uzoq davom etadi.
- D) Pandalardagi kuchli oyoq ularga suzish imkonini beradi.

